

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.P.Jurayev

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida yer egaligi tizimi va uning o'ziga
xos jihatlari.....285

Sh.Sh.Jumayev

Farg'ona viloyatidagi yevangel xristian baptistlar jamoasi tarixi va bugungi kundagi
faoliyati293

K.Abdurakhmanova, M.Jurabekova

Reflection of folk medicine in the elements of primitive religion
(the example of Jizzakh)297

ADABIYOTSHUNOSLIK**S.Mirzaeva, N.Y.Usarova**

A comparative analysis of the characters of king Arthur and Alpomish in english and
uzbek folklore literature301

A.G.Sabirdinov

Jadidchilik, muxtoriyat, mustaqillik307

G'.O.Xolbutayev

Askiya-so'z san'ati, hozirjavoblik va zukkolik mahorati310

O.Barziyev, F.Baxtiyor

Sayohat taassurotlari bilan bog'liq poetik turkumlar tasnifi317

S.A.Xodjayev

Folklor namunalarida uchlik timsoliga asoslangan ramzlar323

H.K.Сабиров, В.А.Гиёсова

Движение джадидизм и узбекская детская литература326

G.Ch.Muratova

G'.G'ulomning "Shum bola" qissasida qahramon ruhiy olami tasviri329

TILSHUNOSLIK**N.R.Gafurova**

O'zbek va ingлиз tillaridagi o'zlashma so'zlar va neologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari333

Q.Sh.Kaxarov, D.M.Dehqonova

O'zbek va ingлиз tillarida iboralarning qo'llanishi338

Y.E.Ro'ziboyeva

Ingliz va o'zbek tillaridagi estetik qadriyatlarni ifodalovchi maqollarning
lingvakulturologik xususiyatlari341

N.R.Gafurova

Neologizmlarning tarjimada ifodalanishi va o'ziga xos xususiyatlari344

M.G.Khoshimov

Problems of general and typological theory of composite sentence with a parenthetical
clause as an invariant type of syntactic unit347

D.M.Yuldasheva, M.A.Ermatova, N.U.Abdumalikova

Jahon tilshunosligida matn taddiqi haqida354

M.M.Aslonov

The educational process and content of educational activities in the
"House of Bukhara education"358

Z.V.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi forsiy sinonimlar xususida362

G.R.Mamadalieva

Ingliz va o'zbek tillarida "Foot/Oyoq" leksemalarining semantik tahlili367

P.Sh.Kaxramonova

Badiiy asar tili va ekolingvistika373

H.U.Davlatova

Muloqotning nazariy asoslari hamda sohaga oid qarashlar376

H.U.Davlatova, H.Abdurahmonova

Milliy muloqot kompetensiyasini shakllantirish omillari380

Z.V.Alimova, M.Rasulova

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IBORALARNING QO'LLANISHI**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВЫРАЖЕНИЙ НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ****THE USE OF EXPRESSIONS IN UZBEK AND ENGLISH****Kaxarov Qobil Shuhrat o'g'li¹**¹Farg'ona davlat universiteti dotsenti**Dehqonova Durdonaxon Muzaffar qizi²**²Farg'ona davlat universiteti talabasi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada frazeologizm tushunchasi, uning rivojlanishi va vazifalari haqida so'z boradi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida iboralardan foydalanish, ularning o'ziga xos xususiyatlari, o'xshash va farqli jihatlari ham yoritib berilgan. Bundan tashqari, o'zbek va ingliz tilshunosligida katta o'rin tutgan qimmatli manbalar va ularga qisqacha izoh ham berib o'tilgan. Qolaversa, ushbu maqolada ikki tildagi frazeologizmlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularga samarali yechimlar ham tavsija etilgan. Ikki tilni bir-biriga qiyoslab o'rganishning til o'rganuvchilari va xalqlar uchun olib keladigan foydalari ham yoritib berilgan.

Аннотация

В данной статье говорится о понятии фразеологизма, его развитии и задачах. Также поясняется употребление выражений в английском и узбекском языках, их характеристики, сходства и различия. Кроме того, приведены ценные источники, занимающие большое место в узбекском и английском языкоизнании, и краткие комментарии к ним. Кроме того, в данной статье предлагаются проблемы, возникающие в процессе перевода фразеологизмов на два языка и эффективные решения их. Также подчеркиваются преимущества сравнения двух языков для изучающих язык и наций.

Abstract

This article talked about the concept of phraseologism, its development and importance. Also, the use of expressions in English and Uzbek languages, their characteristics, similarities and differences were also explained. In addition, valuable sources that have a great place in Uzbek and English linguistics and brief comments on them were also given. In addition, this article suggested the problems that arose in the process of translating phraseological units in two languages and effective solutions to them. The benefits of comparing two languages to language learners and nations were also highlighted.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologizm, ibora, sinonimiya, emotsional-ekspressiv bo'yоq, lingvokulturologik xususiyatlar, o'z ma'no, ko'chma ma'no.

Ключевые слова: фразеология, фразеологизм, экспрессия, синонимия, эмоционально-экспрессивная окраска, лингвокультурные особенности, первоначальное значение, переносное значение.

Key words: phraseology, phraseologism, expression, synonymy, emotional-expressive color, linguo-cultural features, meaning, figurative meaning.

KIRISH

Tilshunoslikning muhim sohalaridan biri – frazeologiya bo'limidir. Dastlab tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida XX asrning 40-yillarda paydo bo'lgan ushbu bo'lim tildagi frazeologizmlarning sinonim, omonim, antonimlik xususiyatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, frazeologiya bo'limi frazeologizmlar tarkibidagi so'zlar va ular anglatadigan ma'nolar, shu bilan birga, boshqa so'z turkumlari bilan o'zaro munosabatini ham o'rganadi.

Ikki xil til oilasiga mansub ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarning o'rni beqiyos. Bu ikki tilda ham iboralardan nutqning ta'sirchanlik darajasini oshirish, unga emotsional-ekspressiv bo'yоq berish maqsadida keng foydalaniladi.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida iboralarning qo'llanilishi va o'ziga xos xususiyatlari, ular o'rtaqidagi lingvistik va madaniy farqlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, ikki turli tildagi iboralarni tarjima qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar tahlil qilinib, ularning oldini olish uchun samarali tarjima metodlari va usullari ham ko'rsatib o'tiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni o'rganish o'tgan asrning 50-yillardan boshlangan, shundan buyon tilshunos olimlar, xususan, Sh.Rahmatullayev, B.Yo'idoshev, A.Mamatov

TILSHUNOSLIK

tomonidan frazeologiya bo'limining turli sohalarini tahli qilishda qator tadqiqotlar o'tkazilgan, iboralar ma'nosi, sinonim, omonim, antonimlik kabi xususiyatlarini o'zida jamlagan lug'atlar ishlab chiqilgan. Bunda Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli lug'ati" ham o'zbek tilshunosligida qimmatli manba hisbolanadi.

"Idioms: Description, Comprehension, Acquisition, and Pedagogy" ("Idiomalar: Tavsif, Tushunish, O'zlashtirish va Pedagogika") by Dmitri Leontjev and Elena Babenko or "The Oxford Dictionary of English Idioms" ("Oksford ingliz iboralari lug'ati") kitoblari ingliz tilshunosligi frazeologiyasini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu kitoblarda ingliz tili iboralari va ma'nolari yorqin misollar bilan ifodalab berilgan. Shuningdek, ingliz tilida uchraydigan iboralarning ma'nodosh, qarama-qarshi variantlari va ularning qisqacha kelib chiqish tarixi haqidagi ma'lumotlarni ham ushbu manbalardan olishimiz mumkin.

Yana bir ingliz tilshunosligidagi muhim manbalardan biri bu – Mona Baker tomonidan yozilgan "In other words (a coursebook on translation)" kitobidir. Bu tilshunos olimlar, ayniqsa, tarjimonlar uchun juda ham qimmatli qo'llanma sanaladi. Ushbu kitob ingliz tili va boshqa tillar tilshunosligida uchraydigan o'xhash va farqli tomonlar, bir so'zning ma'nosidan tortib uning lingvokulturologik xususiyatlariqacha oson va sodda tilda izohlab berilgan. Bundan tashqari, ingliz tilidan boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar batafsil tahlil qilinib, ularni hal qilish usullari tavsiya qilib o'tilgan. Ushbu kitob o'rganilgan bilim va tajribalarni amalda qo'llash va mustahkamlash uchun maxsus topshiriqlar bilan ham boyitilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham iboralar, ko'pincha, ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topadi va ibora tarkibidagi so'zlar o'z ma'nosini yo'qotadi. Iboraning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash orqali anglashiladi. Ba'zan ibora tarkibidagi so'zlar o'z ma'nosida qo'llanishi ham mumkin. Masalan, "Qizaloqning zo'rg'a tutgan kapalagi uchib ketdi" gapida *kapalagi* ega, *uchib ketdi* kesim deya tahlil qilishimiz mumkin. "Ertasiga ot og'rib qolsa bo'ladimi! Kapalagim uchib ketdi" (Oybek, Qutlug' qon) gapidagi *kapalagim uchib ketdi* bitta iboraga teng (**kapalagi uchmoq** – 1) juda qo'rqib ketmoq, 2) achchiqlanmoq, g'azablanmoq). Tarkibidagi so'zlar o'z ma'nosini yo'qotib, ko'chma ma'noda qo'llanilgan, shuning uchun *kapalagim uchib ketdi* iborasini bitta kesim qilib olamiz. Yoki ingliz tilidagi "feather in your cap" iborasini olaylik. Agar buni ibora ekanligini bilmasak, oddiygina "qalpoqdagi pat" deb tarjima qilamiz, lekin ibora ma'nosida "faxrlansa bo'ladiqan yutuq, muvaffaqiyat" ("an achievement to be proud") degan ma'noni anglatadi.

Iboralar bir tilning, millatning madaniyatni, urf-odatlari, tarixi, rivojlanishi orqali paydo bo'ladi va shunga ko'ra har bir tilning frazeologiyasi o'sha tilning, millatning tarixiy, ijtimoiy, madaniy aksini ifodalab, unga xos xususiyatlarni ko'rsatib turadi. Inglizlarda "the green-eyed monster" degan ibora bor. U rashkchi ma'nosini anglatadi, boisi inglizlarga ko'ra, yashil – hasad, rashk belgisi. Bu ibora taniqli ingliz yozuvchisi Shekspirning "Otello" asaridan iqtibos qilib olingan: "O! beware my lord of jealousy; it is the green-eyed monster which doth mock The meat it feeds on". Demak, o'zga tillardagi iboralar ma'nosini anglash uchun o'sha tillar tarixi, dini, madaniyati, adabiyotidan ham boxabar bo'lishimiz kerak bo'ladi.

Ingliz tilidagi ba'zi iboralar o'zbek tilida o'z ekvivalentiga ega. Masalan, *to make a mountain out of a molehill; to make an elephant out of a fly* iboralari o'zbek tilidagi *pashshadan fil yasamoq* (*arzimas narsani oshirib ko'rsatmoq, haddan tashqari mubolag'a qilmoq*) iborasiga ma'no jihatidan mos keladi. Shunga qaramay, ba'zi inglizcha iboralar o'zbek tilida o'zining ma'nodoshiga ega emas yoki aksincha. Masalan, o'zbek tilidagi *tепа сочи тикка бо'лди* iborasining ingliz tilida aynan o'xhash variant yo'q, shuning uchun u berayotgan ma'noni faqatgina so'zlar bilan izohlab bera olamiz xolos (*tепа сочи тикка бо'лмоқ – to get angry*).

Yuqorida e'tirof etilgan fikrlardan quyidagi natijalarga erishish mumkin:

➤ O'zbek va ingliz tillarida frazeologik birikmalar lug'at boyligining muhim qismi hisoblanadi.

➤ Har ikkala tilda ham iboralardan nutqning ta'sirchanligini oshirish, emotsional-ekspressiv bo'yoq berishda foydalilanildi.

➤ Ushbu ikki tilda ham frazeologik birliklar o'zining sinonimi, antonimi, omonimiga ega.

➤ Tilda iboralar paydo bo'lishi va rivojlanishida xalqlarning tarixiy, ijtimoiy, madaniy hayoti muhim rol o'yaydi.

➤ Frazeologik birliklar har bir xalqning madaniyati, dunyoqarashi, turmush tarzini o'zida aks ettiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tilning lug'at boyligining oshishida frazeologizmlarning o'rni katta. Frazeologik iboralardan foydalanish orqali jamiyatning madaniy tuzilishini ko'ra olishimiz mumkin. Ingliz tilida iboralar, asosan, tarixiy voqealar, madaniy urf-odatlarga asoslanadi. O'zbek tili frazeologizmlari esa xalqning turmush tarzi, mehmono'stligi va boy an'analari bilan chambarchas bog'liq. Iboralar nutqimizni yanada ta'sirchan bo'lishiga, yetkazmoqchi bo'lgan fikrimizni kuchliroq ifodalashimizga yordam beradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik iboralar o'zining lingvistik kelib chiqishi va madaniy asosiga ko'ra bir-biridan farq qilsa-da, bu iboralarni chuqur o'rganish ushbu tillarda so'zlashuvchilar o'rtasida ko'priq vazifasini o'tashi mumkin. Ularni qiyosiy tahlil qilish orqali til o'rganuvchilariga yana bir qulaylik yaratib, madaniyatlararo, tillararo munoasabatlarni mustahkamlagan bo'lamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dilin Liu. "Idioms: Description, Comprehension, Acquisition, and Pedagogy". – Taylor & Francis, 2017.
2. <https://uz.wiktionary.org>
3. M. Baker. "In Other Words: A Coursebook on Translation". London: Routledge, 1992.
4. Oxford dictionary of idioms.
5. Qosimova A. "O'zbek va ingliz frazeologiyasi". – Scientific progress, 2021. ("Uzbek and English phraseology").
6. Qahramonova D. "O'zbek va ingliz tillari idiomalarini taqqoslashning lingual tahlili". – Ustozlar uchun, 2023. ("Lingual analysis of the comparison of Uzbek and English idioms").
7. Rahmatullayev. Sh "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati". – O'qituvchi, 1978.
8. Urokov Sh, Isayeva M. "Linvokulturologik iboralar va ularning semantik ma'nolari". – "Sharq tillarini o'qitishning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya, 2022. ("Linvocultural expressions and their semantic meanings").